

# Navbatdagi "Siyosiy-ma'rifat soati" bo'lib o'tdi.



Navbatdagi "Siyosiy-ma'rifat soati" bo'lib o'tdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tomonidan davlat fuqarolik xizmatchilari uchun navbatdagi siyosiy-ma'rifiy o'quv soati bo'lib o'tdi.

Bugungi "Siyosiy-ma'rifat soati"da shahar hokimligi apparat xodimlari, tashkilot rahbarlari ishtirok etdi.

Spikerlar tomonidan Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish maqsadlari (Yangi O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasining birinchi ustuvor yo'nalishi mazmun-mohiyati), huquqiy savodxonlik (hafta davomida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarning mazmun-mohiyati) haqida to'xtalib o'tildi.

